



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Qudratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAÐRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	



XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI



Ochildiyeva Naima Mengziya qizi

Termiz Davlat Universiteti magistranti

E-mail: naimajonibek@gmail.com

ORCID: 0009-0002-9293-5251



Ilmiy rahbar:

Ollokulova Feruza Mansurovna

i.f.f.d. (PhD), Termiz Davlat Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti

ORCID: 0009-0001-4427-1879

E-mail: ollokulova93@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi investitsion loyihalarni amalga oshirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari, ularni boshqarish va monitoring qilish tizimlari, shuningdek, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik darajasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro moliya institutlari, investitsion loyihalar, investitsion muhit, moliyalashtirish mexanizmlari, loyiha boshqaruvi, monitoring va baholash, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya risklari, institutsional muammolar, barqaror iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations and practical aspects of implementing investment projects with the participation of international financial institutions. The study examines financing mechanisms, project management and monitoring systems, as well as the level of interaction among stakeholders.

Key words: international financial institutions, investment projects, investment environment, financing mechanisms, project management, monitoring and evaluation, economic efficiency, investment risks, institutional problems, sustainable economic development.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются теоретические основы и практические аспекты реализации инвестиционных проектов с участием международных финансовых институтов. В ходе исследования изучены механизмы финансирования проектов, системы их управления и мониторинга, а также уровень взаимодействия между заинтересованными сторонами.

Ключевые слова: международные финансовые институты, инвестиционные проекты, инвестиционная среда, механизмы финансирования, управление проектами, мониторинг и оценка, экономическая эффективность, инвестиционные риски, институциональные проблемы, устойчивое экономическое развитие.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishlari belgilab olindi. Mazkur jarayonda investitsiyalarning o'rni beqiyos bo'lib, ularning mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik yangilanishni ta'minlash, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish uchun muhim kapital resurslarni shakllantiradi.

Investitsiyalar moliyaviy nuqtayi nazardan daromad olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga yo'naltirilgan aktivlar hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan esa ular yangi korxonalarni tashkil etish, uzoq muddatli asosiy vositalarni xarid qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan mablag'lar yig'indisini ifodalaydi. Investitsiyalar hajmi asosan foiz stavkalari, kutilayotgan foyda me'yori, investitsion muhitning barqarorligi va shaffofligi kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Jahon miqyosida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) global iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda global iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi investitsiya oqimlarining dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, 2023-yilda global FDI oqimlari taxminan 1,3 trillion AQSH dollarini tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 2 % ga kamaygan. Mazkur holat global iqtisodiy sekinlashuv, geosiyosiy omillar hamda inflyatsion jarayonlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, 2024-yilda ham global investitsiya muhiti murakkab bo'lib qolayotganiga qaramasdan, ayrim hududlarda investitsiya faolligining tiklanish tendensiyalari kuzatilmoqda. Bu esa xalqaro investitsiya oqimlarining iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Mazkur ko'rsatkichlar xalqaro investitsiyalar oqimlari investitsion loyihalarni moliyalashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu sababli milliy iqtisodiyot uchun investitsion muhit jozibadorligini yanada oshirish, strategik rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va samarali loyiha boshqaruvi tizimlarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati o'zining iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari va geografik imkoniyatlari bilan O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda investitsion loyihalar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, viloyatning agrar, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar iqtisodiyotning diversifikatsiyasini rag'batlantirib, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar infratuzilmani modernizatsiya qilish, turizm va energetika tarmoqlarini rivojlantirish hamda hududning investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning yuqoridagi masalalarga bag'ishlangani uning bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri investitsiyalar hisoblanadi. Investitsion faoliyat samaradorligi esa nafaqat kiritilayotgan mablag'lar hajmiga, balki ularning qanday amalga oshirilayotganiga, ya'ni investitsiya dasturlarining ijrosi ustidan olib borilayotgan tizimli nazorat va tahliliy jarayonlarga ham bevosita bog'liqdir.

Xususan, Mahmudov N.ning "Hududiy iqtisodiyotda investitsion muhit va infratuzilma rivoji" nomli tadqiqot ishida hududlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarini takomillashtirish, tarmoqlarning investitsion faolligi va jozibadorligini oshirish bilan bir qatorda, hududlarda investitsion muhit hamda infratuzilma rivojini yanada yaxshilash masalalari yoritib berilgan [6].

Shu bilan birga, Qosimova M.ning "Investitsiya faoliyatining zamonaviy yo'nalishlari" nomli tadqiqot ishida mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlashda investitsiya faoliyati strategik ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Muallif investitsiyalar, ayniqsa, real sektor tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, hududiy infratuzilmani rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb etishning asosiy manbalaridan biri ekanligini asoslab bergan. Shuningdek, davlat tomonidan qabul qilinayotgan yillik investitsiya dasturlari iqtisodiy islohotlarni amaliyotga joriy etish, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib o'tilgan [7].

Rossiyalik olim Ivanov A.V. esa 2021-yilda chop etilgan "Monitoring investitsionnyx proyektov v gosudarstvennom sektore" nomli asarida Rossiya Federatsiyasida amalga oshirilayotgan yirik milliy loyihalar doirasidagi monitoring tizimini chuqur tahlil qilgan. Olimning fikricha, davlat investitsiya dasturlari uchun



indikatorlar tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga xizmat qiluvchi strategik instrument hisoblanadi. Shuningdek, loyiha boshida shakllantirilgan indikatorlarning yakuniy bosqichgacha yangilanmasdan qolishi loyiha samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda isbotlangan [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlarini o'rganish maqsadida kompleks va tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik baholash hamda taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqot mavzusi doirasida mavjud nazariy qarashlar va ilmiy yondashuvlar atroflicha o'rganilib, ular asosida mualliflik yondashuvlari shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot Surxondaryo viloyati misolida investitsion loyihalarning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash hamda hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Loyiha boshqaruvi milliy agentligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, yangi tizim O'zbekiston hududida investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish bo'yicha investitsiyaviy hamda hududiy dasturlarning o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi. Mazkur tizim Yagona milliy loyiha boshqaruvi axborot tizimiga integratsiya qilingan.

Yangi tizimda loyihalarni amalga oshirishni hisobga olish, nazorat qilish va monitoring jarayonlari to'liq avtomatlashtirilgan. Tizim loyihalarning muddati, byudjeti, maqsadi hamda asosiy ko'rsatkichlarini muntazam kuzatib boradi. Shuningdek, jalb qilingan va o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni shakllantiradi hamda loyihalarni amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida ishga tushirish bilan bog'liq xavflarni aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, tizim investitsiya kiritilgandan keyingi davrda loyiha hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish darajasini kuzatish imkoniyatiga ega. Hozirgi vaqtda ushbu tizim sinov tariqasida faoliyat yuritmoqda hamda unga investitsiya loyihalarini nazorat qilish va monitoring qilish jarayonida ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar, shuningdek, xo'jalik birlashmalarini ulash ishlari amalga oshirilmoqda.

Yangi tizimning joriy etilishi real vaqt rejimida samarali monitoring olib borish, loyihalarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlash, investitsiyalarni o'zlashtirish jarayonining shaffofligini oshirish, loyihalarni amalga oshirishdagi xavflarni prognozlash va ularning oldini olish, shuningdek, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish orqali investitsion loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik ahamiyatga ega investitsion loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirishga ko'maklashish bir qator muhim masalalarni tizimli ravishda ko'rib chiqish orqali ta'minlanadi (1-jadval).

1-jadval. Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari (kreditlar bilan birga)¹

Tumanlar	Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, mlrd so'm		Xorijiy investitsiyalarning nisbati, % da	
	Jami	Shu jumladan kreditlar	Jamiga nisbatan	Asosiy kapitalga investitsiyalar
Surxondaryo viloyati	11710,0	6166,2	100,0	68,4
Termiz shahri	922,2	309,4	7,9	69,4
Oltinsoy tumani	483,8	483,8	4,1	81,0
Angor tumani	427,6	172,3	3,7	68,5
Bandixon tumani	441,5	-	3,8	81,6
Boysun tumani	2364,5	987,4	20,2	89,6
Muzrabot tumani	660,6	110,4	5,6	76,3
Denov tumani	482,8	98,0	4,1	46,9
Jarqo'rg'on tumani	1037,6	1026,0	8,9	76,1
Qumqo'rg'on tumani	585,5	585,5	5,0	69,4
Qiziriq tumani	597,9	221,4	5,1	81,1

¹ [Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi](#) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Sariosiyo tumani	717,6	680,6	6,1	37,5
Termiz tumani	1312,3	1197,0	11,2	59,9
Uzun tumani	673,8	191,4	5,8	83,4
Sherobod tumani	481,6	13,7	4,1	62,1
Sho'rchi tumani	520,7	89,3	4,4	60,1

Surxondaryo viloyati bo'yicha jami 11 710,0 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 6 166,2 mlrd so'mi kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich viloyatdagi jami xorijiy investitsiyalarning 100 % ini tashkil etadi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi 68,4 % bo'lib, bu hududda yirik kapital loyihalar faol amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Termiz shahrida 922,2 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 309,4 mlrd so'mi kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. Hududning viloyat jami investitsiyalaridagi ulushi 7,9 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 69,4 % bo'lib, investitsiyalar asosan qurilish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Oltinsoy tumanida 483,8 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, uning barchasi kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Hududning jami investitsiyalaridagi ulushi 4,1 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 81,0 % bo'lib, investitsiyalarning asosiy qismi kapital qurilish obyektlariga yo'naltirilgan.

Angor tumanida 427,6 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 172,3 mlrd so'mi kredit mablag'lari hisoblanadi. Tumanning viloyat investitsiyalaridagi ulushi 3,7 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 68,5 % bo'lib, bu investitsion faollikning o'rtacha darajada ekanligini bildiradi.

Bandixon tumanida 441,5 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lsa-da, kredit mablag'lari jalb qilinmagan. Hududning jami investitsiyalaridagi ulushi 3,8 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 81,6 % bo'lib, investitsiyalarning katta qismi kapital obyektlarga yo'naltirilganini ko'rsatadi.

Boysun tumani viloyatdagi yetakchi hududlardan biri hisoblanib, unda 2 364,5 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan. Shundan 987,4 mlrd so'mi kredit mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. Tumanning jami investitsiyalaridagi ulushi 20,2 % bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 89,6 % ni tashkil etib, hududda yirik kapital qurilish va infratuzilma loyihalari amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Muzrabot tumanida 660,6 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 110,4 mlrd so'mi kredit mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. Hududning jami investitsiyalaridagi ulushi 5,6 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi esa 76,3 % ga teng.

Denov tumanida 482,8 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 98,0 mlrd so'mi kredit mablag'lari hisoblanadi. Tumanning viloyat investitsiyalaridagi ulushi 4,1 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 46,9 % bo'lib, bu hududda investitsiyalarning muayyan qismi joriy xarajatlarga yo'naltirilganini anglatadi.

Jarqo'rg'on tumanida 1 037,6 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 1 026,0 mlrd so'mi kredit mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. Tumanning viloyat jami investitsiyalaridagi ulushi 8,9 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 76,1 % ga teng.

Qumqo'rg'on tumanida 585,5 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, uning barchasi kredit mablag'lari hisobidan shakllangan. Tumanning jami investitsiyalaridagi ulushi 5,0 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi 69,4 % ga teng.

Qiziriq tumanida 597,9 mlrd so'm xorijiy investitsiya jalb qilingan bo'lib, shundan 221,4 mlrd so'mi kredit mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. Tumanning viloyat investitsiyalaridagi ulushi 5,1 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 81,1 % bo'lib, bu yuqori kapitallashtirish darajasini ifodalaydi.

Sariosiyo tumanida 717,6 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 680,6 mlrd so'mi kredit mablag'lari hisoblanadi. Tumanning jami investitsiyalaridagi ulushi 6,1 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 37,5 % bo'lib, bu investitsiyalarning ma'lum qismi joriy xarajatlarga va aylanma mablag'larga yo'naltirilganini ko'rsatadi.

Termiz tumanida 1 312,3 mlrd so'm xorijiy investitsiya jalb qilingan bo'lib, shundan 1 197,0 mlrd so'mi kredit mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. Tumanning viloyat investitsiyalaridagi ulushi 11,2 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 59,9 % ga teng.

Uzun tumanida 673,8 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 191,4 mlrd so'mi kredit mablag'lari hisoblanadi. Tumanning jami investitsiyalaridagi ulushi 5,8 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 83,4 % bo'lib, yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Sherobod tumanida 481,6 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan atigi 13,7 mlrd so'mi kredit mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. Tumanning viloyat jami investitsiyalaridagi ulushi 4,1 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 62,1 % ga teng.



Sho'rch tumanida 520,7 mlrd so'm xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 89,3 mlrd so'mi kredit mablag'lari hisoblanadi. Tumanning viloyat investitsiyalaridagi ulushi 4,4 % ni tashkil etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 60,1 % ga teng.

Biroq investitsion loyihalarning to'liq samaradorligini ta'minlash uchun hududiy infratuzilmadagi ayrim kamchiliklar, loyiha boshqaruvi salohiyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabi muammolar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi investitsion loyihalar hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekanligi aniqlandi. Xususan, investitsiya loyihalari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy infratuzilmanni modernizatsiya qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatining geostrategik joylashuvi, tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi salohiyati hamda transport-logistika imkoniyatlari investitsiya oqimlarini rag'batlantiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda energetika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, transport-logistika va turizm sohalarida investitsion faollikning ortishi hudud iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Loyihalash institutlarining moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish hamda loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda zamonaviy, energiya tejamkor va yuqori samaradorlikka ega texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan talablarni kuchaytirish lozim.

2. Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar bo'yicha tashkil etilgan tarmoq xarid komissiyalari tarkibini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Qarorlar qabul qilish sifatini oshirish uchun komissiya tarkibiga loyiha tashabbuskorlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining malakali va tajribali mutaxassislarni jalb etish zarur.

3. Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar doirasida xarid jarayonlarini o'z vaqtida tashkil etish maqsadida tender hujjatlarini ishlab chiqishdan boshlab g'olib kompaniya bilan shartnoma imzolashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni belgilangan reglament asosida 5–6 oy muddatda yakunlash tizimini joriy etish lozim. Shuningdek, xarid jarayonlari muvaffaqiyatli yakunlanganidan so'ng xarid komissiyasi a'zolarini moddiy rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Loyiha tashabbuskorlariga qurilish ishlarini amalga oshiruvchi pudrat tashkilotlari bilan shartnomalarni bosqichma-bosqich imzolash tavsiya etiladi. Belgilangan muddatlarda ishlarni bajarmaslik holatlariga nisbatan jarima mexanizmlarini qo'llash pudrat tashkilotlarining mas'uliyatini oshirishga va qurilish ishlarini o'z vaqtida yakunlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari tasdiqlanganidan boshlab loyiha yakuniga qadar bo'lgan davr uchun kompleks tarmoq jadvalini ishlab chiqish hamda uni vakolatli organlar va xalqaro moliya institutlari bilan kelishilgan holda tasdiqlash lozim.

6. Surxon vohasining ekologik, arxeologik va ziyorat turizmi salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida ushbu yo'nalishlarga xususiy investitsiyalarni faol jalb etish zarur.

7. Quyosh va shamol energetikasi bo'yicha istiqbolli hududlarda "yashil energetika" loyihalarini kengaytirish orqali hududning energetik xavfsizligini mustahkamlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, investitsiya loyihalarining amalga oshirilish hajmi, miqdori va dinamikasi mamlakat iqtisodiy o'sish darajasini baholovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsion loyihalarning samaradorligi iqtisodiy islohotlarning amaliy natijalarini aks ettiradi. Shu sababli investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish hududiy iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-yanvardagi "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-7374216>
2. Jahon banki. *Public-Private Partnership Handbook*. – 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari. – 2021–2025-yillar.
4. Xalqaro valyuta jamg'armasi. *Uzbekistan: Enhancing Private Sector Participation*. – 2021.
5. Osiyo taraqqiyot banki (ADB). *Uzbekistan Country Partnership Strategy*. – 2021–2025-yillar.



6. Mahmudov N. *Hududiy iqtisodiyotda investitsion muhit va infratuzilma rivoji*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. Qosimova M. *Investitsiya faoliyatining zamonaviy yo'nalishlari*. – Ilmiy maqola. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2022.
8. Ivanov A.V. *Monitoring investitsionnyx projektov v gosudarstvennom sektore Rossii*. – Moskva: Gosplan-Press, 2021.
9. Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti ilmiy jurnallari. – 2021–2024-yillar.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – Stat.uz – 2020–2024-yillar.
11. UNCTAD. *Investment Trends Monitor*. – 2023–2024-yillar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>